B. Akitoby va M. Fortlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli moliyaviy xizmatlar va soliq savodxonligini birlashtirib, soliq to'lovchini axborot bilan ta'minlashning mobil xizmatlardan foydalanish faolligini sezilarli darajada oshirishi mumkinligini isbotlagan⁴.

1 Annamaria Lusardi Olivia S. Mitchell Financial literacy and planning: Implications for retirement wellbeing // National bureau of economic research 1050 Massachusetts Avenue Cambridge, MA 02138 May 2011 <http://www.nber.org/papers/w17078>

2 Atkinson A. and F. Messy. Measuring Financial Literacy: Results of the OECD // International Network on Financial Education (INFE) Pilot Study, OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions. 2012. № 15. OECD Publishing. URL: <http://dx.doi.org/10.1787/5k9cfs90fr4-en>

3 Alm, J., & Torgler, B. (2006). Culture differences and tax morale in the United States and in Europe. Journal of Economic Psychology, 27(2), 224–246. <https://doi.org/10.1016/j.joep.2005.09.002>

4 Akitoby, B., & Stratmann, T. (2008). Fiscal policy and financial markets. The Economic Journal, 118(533), 1971-1985.



D.A.Muhammedova o'zining dissertatsiya ishida O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali moliya siyosatining ta'sirchanligini kuchaytirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni samarali amalga oshirishda moliyaviy ta'limning ahamiyatini ilmiy asoslab bergan⁵.

J.A.Jo'raev o'zining dissertatsiya ishida moliyaviy savodxonlikni oshirishda tijorat banklari roliga alohida e'tiborni qaratib, bunda O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlari xususidagi nazariy materiallarni tahlil qilib, mavjud muammolarni aniqlagan va ularni bartaraf etish bo'yicha o'zining ilmiy qarashlarini bayon qilgan⁶.

O.S. Dusmuxamedov va Sh.A. Dusmuxamedova moliyaviy madaniyat va ongli moliyaviy xulq-atvorni shakllantirish orqali aholining turmush darajasi, iqtisodiy faolligi va barqarorligi oshishi haqida ilmiy xulosalar chiqargan⁷.

Mavjud tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, soliq siyosati va moliyaviy savodxonlik o'rtasidagi bog'liqlik, ayniqsa raqamli bank xizmatlaridan foydalanish jarayonida, O'zbekiston sharoitida hali yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur holat soliq savodxonligining aholining moliyaviy xulq-atvori, soliq intizomi, naqd pulsiz hisob-kitoblarga munosabati hamda mobil bank xizmatlaridan foydalanish faolligiga ta'sirini chuqur tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois, soliq siyosatining moliyaviy savodxonlikni oshirishdagi institutsional, axborot-tushuntirish va raqamli xizmatlar bilan integratsiyalashgan mexanizmlarini aniqlash hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, analiz va sintez kabi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanilgan hamda mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda Web of Science ilmiy ma'lumotlar bazasida indekslangan xorijiy ilmiy maqola va tadqiqot natijalariga murojaat qilingan. Shu bilan bir qatorda, xorijiy mamlakatlarda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, soliq savodxonligini shakllantirish, raqamli moliyaviy xizmatlardan, xususan mobil banking xizmatlaridan foydalanish madaniyatini rivojlantirish masalalarini o'rganishda xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari va tadqiqot natijalaridan foydalanilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston sharoitida aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda soliq siyosatining o'rni, fuqarolarning soliq majburiyatlarini anglash darajasi, soliq intizomi hamda mobil bank xizmatlaridan foydalanish xulq-atvorini tahlil qilishda mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, tahliliy yondashuvlari va amaliy tavsiyalari o'rganilgan.

Shuningdek, moliyaviy savodxonlik darajasining aholining moliyaviy xulq-atvori, naqd pulsiz hisob-kitoblardan foydalanishi, bank mobil ilovalari orqali to'lovlarni amalga oshirishi hamda soliq majburiyatlariga rioya etishiga ta'sirini baholashda O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma'lumotlari, tegishli davlat organlari hisobotlari va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda soliq siyosatining rivojlanish dinamikasi hamda uning aholining moliyaviy savodxonligiga ta'sirini chuqur anglash uchun, avvalo, mamlakatda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari mazmuni, ularning amaliy natijalari va ushbu jarayonlarning aholiga yetkazilish mexanizmlarini tahlil qilish zarur.

O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda soliq siyosati va mobil bankingning o'rni so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari, raqamli soliq xizmatlarining kengayishi hamda aholining bank mobil ilovalaridan foydalanish faolligi bilan bevosita bog'liqdir. Soliq tizimining soddalashtirilishi, soliq yukining kamaytirilishi va soliq ma'muriyatchiligining raqamlashtirilishi fuqarolarning soliq majburiyatlarini tushunishi, ularni o'z vaqtida bajarishi hamda moliyaviy xizmatlardan ongli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2018-yildan boshlab amalga oshirilgan soliq islohotlari mamlakat soliq tizimini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish va soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirishga qaratildi. Xususan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yagona 12 foizlik stavka asosida belgilandi, soliq hisobotlarini elektron shaklda taqdim etish amaliyoti kengaytirildi hamda fuqarolar uchun soliq majburiyatlarini masofadan bajarish imkoniyatlari yaratildi. 2020-yildan boshlab onlayn soliq hisobotlarini topshirish mexanizmlari joriy etilgan bo'lsa, 2022-yilda "My Taxes" mobil ilovasining ishga tushirilishi soliq xizmatlaridan foydalanishda raqamli qulayliklarni yanada oshirdi. Natijada 2024-yilga kelib ushbu ilova foydalanuvchilari soni 3,2 million nafarga yetgani soliq xizmatlarining aholiga yaqinlashib borayotganini ko'rsatadi.

Mazkur islohotlar aholining moliyaviy savodxonligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki soliq to'lovchi fuqaro soliqlarni faqat majburiy to'lov sifatida emas, balki o'z daromadi, xarajati, davlat budjeti va moliyaviy intizomi bilan bog'liq iqtisodiy munosabat sifatida anglay boshlaydi. Soliq majburiyatlarini tushunish, ularni

5 Muhammedova D. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda moliya siyosati samaradorligini oshirish yo'llari: i.f.b.f.d.avtoreferat.-T.: TDIU, 2021.-64 b.

6 J.A. Jo'raev Moliyaviy savodxonlikni oshirishda tijorat banklarining roli: i.f.b.f.d.avtoreferat.-T.: TDIU, 2020.-56 b.

7 Dusmuhamedov O.S. Aholining moliyaviy savodxonligini baholashning nazariy asoslari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – 2020. -T.-№5.- 43-52 b,



hisoblash va o'z vaqtida to'lash tartibini bilish fuqarolarda moliyaviy mas'uliyat, to'lov madaniyati va shaxsiy moliyani boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shu bilan birga, soliq xizmatlarining raqamlashtirilishi mobil bankingdan foydalanish madaniyatining kengayishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Soliq to'lovlarini masofadan amalga oshirish, soliq qarzdorligini onlayn kuzatish, elektron hisobot topshirish va mobil ilovalar orqali moliyaviy ma'lumotlarga ega bo'lish fuqarolarning raqamli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchini oshiradi. Natijada aholi bank mobil ilovalari orqali pul o'tkazmalari, kommunal to'lovlar, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirishga faolroq jalb etiladi.

2019–2024-yillar bo'yicha statistik ma'lumotlar ham soliq islohotlari, moliyaviy savodxonlik va mobil bankingdan foydalanish o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, 2019-yilda aholining moliyaviy savodxonlik darajasi 18 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 50 foizga yetgan. Xuddi shu davrda mobil bank foydalanuvchilari ulushi 8 foizdan 57 foizga oshgan. Soliq savodxonligi indeksi esa 3,1 balldan 7,0 ballgacha ko'tarilgan. Bu esa soliq siyosatidagi raqamli islohotlar aholining moliyaviy xulq-atvori va bank xizmatlaridan foydalanish faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda soliq islohotlari, moliyaviy savodxonlik va mobil bankingdan foydalanish dinamikasi⁸

Yil	Soliq islohotlari	Moliyaviy savodxonlik, %	Mobil bank foydalanuvchilari, %	Soliq savodxonligi indeksi, o'rtacha ball
2019	Daromad solig'i 12 foizga tushirildi	18	8	3,1
2021	Elektron hisobot tizimi joriy etildi	30	22	4,2
2022	"My Taxes" ilovasi ishga tushirildi	39	35	5,6
2023	QR-to'lov va elektron hisobvaraqa-faktura integratsiyasi kengaydi	45	47	6,3
2024	Soliq ma'lumotlarini raqamlashtirish jarayoni faollashdi	50	57	7,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, soliq islohotlari bosqichma-bosqich raqamli shaklga o'tgan sari aholining moliyaviy savodxonligi va mobil bank xizmatlaridan foydalanish darajasi ham oshib borgan. Ayniqsa, 2022-yilda "My Taxes" mobil ilovasining ishga tushirilishi fuqarolarning soliq ma'lumotlariga tezkor kirishi, soliq majburiyatlarini kuzatishi va to'lovlarni masofadan amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirgan. Bu esa soliq siyosati bilan mobil banking o'rtasidagi amaliy bog'liqlikni kuchaytirgan.

Soliq xizmatlarining raqamlashtirilishi va mobil banking imkoniyatlarining kengayishi aholining moliyaviy xulq-atvorida muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Soliq to'lovlarini elektron shaklda amalga oshirish, soliq qarzdorligini masofadan kuzatish, to'lovlar tarixini nazorat qilish va bank mobil ilovalari orqali moliyaviy operatsiyalarni bajarish fuqarolarda raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ushbu holat soliq savodxonligi aholining faqat soliq majburiyatlarini bajarishiga emas, balki umumiy moliyaviy madaniyati va xulq-atvoriga ham ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Ya'ni soliqlarning iqtisodiy mazmunini tushunish, ularni to'g'ri hisoblash va o'z vaqtida elektron shaklda to'lash tajribasi fuqarolarda naqd pulsiz hisob-kitoblar, mobil bank xizmatlari, raqamli to'lovlar va shaxsiy moliyani boshqarish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda soliq siyosati va mobil banking o'zaro bog'liq ikki muhim yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Soliq siyosati fuqarolarga moliyaviy majburiyatlar, soliq intizomi va davlat budjeti bilan bog'liq iqtisodiy bilimlarni yetkazsa, mobil banking ushbu bilimlarni kundalik moliyaviy amaliyotga aylantirish imkonini beradi. Natijada aholining moliyaviy savodxonligi, soliq madaniyati, raqamli to'lovlardan foydalanish darajasi va bank xizmatlariga bo'lgan ishonchi ortib boradi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda soliq siyosati va raqamli moliyaviy xizmatlarni o'zaro uyg'unlashtirish muhim natija beradi. Bunda soliq majburiyatlarini tushuntirish, soliq to'lovlarini soddalashtirish va ularni mobil yoki elektron platformalar orqali amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish fuqarolarning moliyaviy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, raqamli soliq xizmatlari va mobil banking tizimlarining integratsiyasi aholining naqd pulsiz hisob-kitoblarga o'tishi, bank xizmatlaridan faol foydalanishi hamda davlat moliya tizimiga bo'lgan ishonchining ortishiga xizmat qiladi.

Bu borada Estoniyada "e-Tax" tizimining joriy etilishi soliq deklaratsiyalarini onlayn topshirish jarayonini sezilarli darajada soddalashtirdi. Natijada fuqarolar soliq majburiyatlarini qisqa vaqt ichida, ortiqcha byurokratik to'siqlarsiz bajarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Soliq jarayonlarining raqamlashtirilishi aholining soliq tizimiga

8 O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Milliy Statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlari hamda muallif tomonidan umumlashtirilgan tahliliy hisob-kitoblar asosida tuzilgan.



bo'lgan ishonchini mustahkamladi hamda davlat xizmatlaridan foydalanish faolligini oshirdi. Ushbu tajriba shuni ko'rsatadiki, soliq xizmatlari qanchalik sodda, ochiq va qulay bo'lsa, fuqarolarning soliq intizomi va moliyaviy savodxonligi shunchalik yuqori bo'ladi⁹.

Hindiston tajribasida esa moliyaviy inklyuziya va soliq savodxonligini oshirish birgalikda olib borilgan. "Jan Dhan Yojana" dasturi doirasida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini bank tizimiga jalb etish, ularga bank hisobvaraqlari ochish, pul o'tkazmalari, subsidiyalar va soliq majburiyatlari haqida ma'lumot berish choralari amalga oshirildi. Natijada 500 milliondan ortiq fuqaroning bank hisobvarag'i ochilishi mamlakatda rasmiy moliyaviy tizimga qamrovni kengaytirdi. Bu holat aholiga moliyaviy xizmatlardan foydalanishni o'rgatish bilan bir qatorda, ularning davlat moliyaviy siyosati va soliq tizimi haqidagi bilimlarini ham oshirish mumkinligini ko'rsatadi¹⁰.

Kenya tajribasi ham soliq siyosati va mobil moliyaviy xizmatlar o'rtasidagi bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi. M-Pesa mobil to'lov tizimiga soliq to'lash funksiyasining qo'shilishi aholi uchun soliq majburiyatlarini bajarishni ancha qulaylashtirdi. Mobil telefon orqali to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati fuqarolarning rasmiy moliyaviy tizimga jalb etilishiga kuchli turtki berdi. Natijada qisqa davr ichida rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi sezilarli oshdi. Bu tajriba mobil banking va mobil to'lov tizimlari nafaqat to'lov vositasi, balki moliyaviy savodxonlikni oshiruvchi amaliy platforma sifatida ham muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi¹¹ (2-jadval).

2-jadval. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda soliq savodxonligi va raqamli moliyaviy inklyuziyaning xalqaro tajribasi

Mamlakat	Soliq-raqamli integratsiya vositasi	O'zbekiston uchun ahamiyati	Natija
Estoniya	"e-Tax" tizimi orqali soliq hisobotini bir necha daqiqada onlayn topshirish	soliq xizmatlarini soddalashtirish va aholiga qulay raqamli platformalarni keng joriy etish	fuqarolarning soliq tizimiga ishonchi oshdi, elektron xizmatlardan foydalanish kengaydi
Hindiston	"Jan Dhan Yojana" dasturi doirasida aholiga bank hisobvaraqlari ochish, soliq, subsidiya va pul o'tkazmalari bo'yicha ma'lumot berish ishlari integratsiyalashgan holda olib borildi	kam ta'minlangan aholi qatlamlarini bank xizmatlari va raqamli moliyaviy tizimga keng jalb etish	500 mln.dan ortiq yangi bank hisobvaraqlari ochildi
Kenya	M-Pesa mobil to'lov tizimiga soliq va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatlari qo'shildi	mobil to'lov tizimlari va soliq xizmatlarini integratsiya qilish orqali aholining moliyaviy faolligini oshirish	rasmiy moliyaviy xizmatlar qamrovi 27 foizdan 83 foizga oshdi
Braziliya	"Nota Fiscal" elektron chek va qaytarib berish dasturi orqali iste'molchilar chek so'rashga rag'batlantirildi	fuqarolarni soliq intizomini ta'minlash jarayoniga rag'batlantirish mexanizmlari orqali jalb etish	soliqdan bo'yin tovlash holatlari sezilarli kamaydi
Singapur	"No-Filing Service" va SingPass integratsiyasi orqali soliq deklaratsiyasini avtomatik shakllantirish tizimi joriy etildi	soliq jarayonlarini avtomatlashtirish orqali fuqarolar uchun soliq majburiyatlarini soddalashtirish	soliq qonunchiligiga rioya etish darajasi juda yuqori bo'lib, ma'muriy xarajatlar va vaqt sarfi kamaydi

Xalqaro tajriba soliq savodxonligini oshirishda faqat tushuntirish ishlari emas, balki fuqarolarni soliq jarayonlariga amaliy jalb etish, soliq xizmatlarini soddalashtirish va raqamli platformalar orqali foydalanishni qulaylashtirish muhim ekanligini ko'rsatadi. Bu borada Braziliya va Singapur tajribalari ham alohida e'tiborga loyiq.

Braziliya tajribasida "Nota Fiscal Eletrônica" va unga bog'liq elektron chek tizimlari iste'molchilarni xarid jarayonida chek talab qilishga rag'batlantirish orqali soliq nazoratining ijtimoiy mexanizmini shakllantirdi. Fuqarolarga elektron chek asosida bonus, lotereya yoki soliq imtiyozlari berilishi ularning soliq tizimiga bo'lgan

9 e-Estonia. *e-Tax/e-Customs: Estonian Tax and Customs Board digital tax services*. Estonia, official digital society portal.

10 Ministry of Finance, Government of India. *Pradhan Mantri Jan Dhan Yojana (PMJDY): Progress Report*. New Delhi: Government of India.

11 Central Bank of Kenya, Kenya National Bureau of Statistics, and FSD Kenya. *FinAccess Household Survey 2019*. Nairobi: Central Bank of Kenya, 2019.



qiziqishini oshirdi. Natijada iste'molchilar soliq jarayonining passiv kuzatuvchisi emas, balki soliq intizomini ta'minlashda ishtirok etuvchi subyektga aylandi. Tadqiqotlarda Braziliyada elektron chek va iste'molchini rag'batlantirish mexanizmlari korxonalar tomonidan savdo aylanmasini yashirish holatlarini kamaytirgani hamda soliq tushumlari shaffofligini oshirgani qayd etiladi.

Singapur tajribasida esa soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish orqali aholining soliq tizimiga bo'lgan ishonchini kuchaytirish yo'li tanlangan. "No-Filing Service" tizimi orqali aksariyat jismoniy shaxslar uchun soliq deklaratsiyasini mustaqil topshirish majburiyati bekor qilinib, daromadlar va soliq majburiyatlari avtomatik hisoblash asosida shakllantirilgan. Bunday yondashuv fuqarolar vaqtini tejash, soliq ma'muriyatchiligi xarajatlarini kamaytirish va soliq majburiyatlarini bajarishni soddalashtirish imkonini berdi. Natijada soliq tizimi aholiga yanada tushunarli, qulay va ishonchli xizmat sifatida namoyon bo'ldi.

Mazkur tajribalar O'zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega. Braziliya tajribasi fuqarolarni soliq intizomini ta'minlash jarayoniga rag'batlantirish orqali jalb etish mumkinligini ko'rsatsa, Singapur tajribasi soliq xizmatlarini avtomatlashtirish va soddalashtirish aholining soliq savodxonligini amaliy jihatdan oshirishini tasdiqlaydi.

Bunda:

Birinchidan, soliq xizmatlarini raqamlashtirish aholining soliq majburiyatlarini tushunishi va ularni bajarishini osonlashtiradi.

Ikkinchidan, mobil banking va soliq xizmatlari o'rtasidagi integratsiya fuqarolarning raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish faolligini oshiradi.

Uchinchidan, soliq savodxonligini oshirish faqat tushuntirish ishlari bilan cheklanmasdan, aholiga qulay, sodd va ishonchli raqamli moliyaviy infratuzilmani yaratish orqali yanada samarali natija beradi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda "My Taxes" mobil ilovasi, elektron soliq hisobotlari, QR-to'lovlar va bank mobil ilovalari imkoniyatlarini yanada uyg'unlashtirish aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, soliq siyosati raqamli moliyaviy xizmatlar bilan integratsiyalashganda, fuqarolarda soliq intizomi, naqd pulsiz hisob-kitob madaniyati, mobil bankingdan foydalanish ko'nikmalari va davlat moliya tizimiga bo'lgan ishonch izchil ortib boradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda soliq siyosati va mobil banking o'zaro bog'liq muhim omillar hisoblanadi. Fuqarolar soliqlarning mazmuni, ularni hisoblash va o'z vaqtida to'lash tartibini yaxshi tushunsa, ular nafaqat soliq majburiyatlarini to'g'ri bajaradi, balki mobil bank xizmatlaridan ham faolroq foydalanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda soliq tizimini soddalashtirish, elektron hisobotlarni joriy etish, "My Taxes" mobil ilovasini ishga tushirish va soliq xizmatlarini raqamlashtirish aholining moliyaviy xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon fuqarolarda naqd pulsiz hisob-kitoblar, raqamli to'lovlar va bank mobil ilovalari orqali moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, soliq savodxonligi yuqori bo'lgan aholida mobil bank xizmatlaridan foydalanish darajasi ham yuqoriroq bo'ladi. Demak, soliq savodxonligini oshirish faqat davlat budjeti tushumlarini ko'paytirish vositasi emas, balki aholining umumiy moliyaviy madaniyatini rivojlantirish, raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishni kengaytirish va moliyaviy inklyuziyani kuchaytirish omili sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, yoshi katta aholi va qishloq hududlarida yashovchi fuqarolar uchun soliq va moliyaviy bilimlarni sodd, amaliy va tushunarli shaklda yetkazish zarur. Chunki aynan ushbu guruhlar raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishda ko'proq qiyinchiliklarga duch keladi. Shu bois, ular uchun alohida moliyaviy ta'lim dasturlari, amaliy treninglar va tushuntirish ishlarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish uchun "My Taxes" ilovasini tijorat banklarining mobil ilovalari bilan integratsiya qilish, soliq to'lovchilarga mobil bank xizmatlari bo'yicha rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish, soliq savodxonligi indeksini muntazam o'lchab borish hamda oliy ta'lim muassasalarida "Soliq va moliyaviy savodxonlik" bo'yicha amaliy kurslarni tashkil etish muhim hisoblanadi.

Fikrimizcha, soliq siyosati va mobil bankingni uyg'unlashtirish O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, soliq madaniyatini shakllantirish, raqamli to'lovlar ulushini kengaytirish va bank xizmatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlashda samarali yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta'minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-64-son Qarori. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-yanvardagi "Moliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish va aholining moliyaviy inklyuziyasini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-13-son Qarori. <https://lex.uz/docs/6329461>



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
4. Lusardi A., Mitchell O.S. Financial Literacy around the World: An Overview // Journal of Pension Economics and Finance. 2011. Vol. 10, № 4. Pp. 497–508.
5. Lusardi A., Mitchell O.S., Curto V. Financial Literacy among the Young // Journal of Consumer Affairs. 2010. Vol. 44, № 2. Pp. 358–380.
6. Atkinson A., Messy F. Measuring Financial Literacy: Results of the OECD / International Network on Financial Education (INFE) Pilot Study. OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions, 2012. № 15.
7. Alm J., Torgler B. Culture differences and tax morale in the United States and in Europe // Journal of Economic Psychology. 2006. Vol. 27, № 2. Pp. 224–246.
8. Akitoby B. and others. Tax Revenue Mobilization: Lessons from World Bank Group Support for Tax Reform. World Bank Policy Research Working Paper 9580. Washington DC, 2021.
9. Muhammedova D.A. O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali moliya siyosatining ta'sirchanligini kuchaytirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, 2023.
10. Jo'raev J.A. Moliyaviy savodxonlikni oshirishda tijorat banklari roli. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, 2022.
11. Dusmuxamedov O.S., Dusmuxamedova Sh.A. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda moliyaviy bilimlarning o'рни // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2021. № 4. B. 112–121.
12. Alifanova Ye.N., Yevlaxova Yu.S. Analiz metodicheskikh podxodov k razrabotke indikatorov finansovoy gramotnosti naseleniya // Finansy i kredit. 2020. № 26(3). S. 496–514.
13. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Aholi turmush darajasi va moliyaviy xizmatlar: 2024-yilgi yillik hisobot. Toshkent, 2024.
14. Markaziy bank. Moliyaviy savodxonlik va ommaboplikni oshirish departamentining 2024-yilgi faoliyat hisoboti. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024. <https://www.cbu.uz>
15. Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D. Financial Inclusion and Inclusive Growth: A Review of Recent Empirical Evidence // World Bank Policy Research Working Paper No. 8040. Washington DC, 2017.
16. OECD. G20/OECD INFE 2020 International Survey of Adult Financial Literacy. Paris: OECD Publishing, 2020.
17. Irgashev A.F. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda moliyaviy siyosatdan foydalanish istiqbollari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent: Tashkent International University, 2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
